



BADIIY ADABIYOTDA BOLALIK TIMSOLI (Chingiz Aytmatovning „Oq kema“ asari asosida)

Komilova Gulnoza Abdurashid qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

Ilmiy rahbar: Farg'ona davlat universiteti amaliy ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek adabiyotlarida bolaning qanchalik ulug'langanligini tadqiq etadi. Bola qalbini tasvirlash orqali uning qanchalik beg'ubor ekanligini anglash qiyin emas. O'zbek adabiyotida bolani tasvirlash orqali hayotni go'zaligi va uning oq va qora taraflari yoritib beriladi

Kalit so'zlar: Bola, e'tiqod, hayot, kema, yaxshilik va yomonlik, ot, baliq, durbin, qalb

O'zbek adabiyotlarida bolaning ichki kechinmalari va uning bolalarcha beg'ubor harakatlari juda chiroyli tasvirlanadi. Bolaning o'y fikrlari naqadar hissiyotlarga boy tarzda tasvirlanadi va inson qalbiga ta'sir etmay qolmaydi. Bola haqidagi asarlarni qanchalik o'qiganimiz sari yangi narsalarni o'zimiz uchun kashf qilib boraveramiz. Nafaqat bola balki bolalarning his-hayajonlarini ta'svirlash orqali oilaning muqaddasligini ham ta'svirlab boriladi. Insonning insoniyligi ta'svirlanadi bola obrazi orqali. Bolalalar va o'smirlar haqida yaratilgan ba'diiy-ilmiiy ommabop va publitsistik asarlarini juda ham ko'plab topsa bo'ladi. Jahon xalqlarida jumladan o'zbek xalqi o'lmas adabiyotlarida tez aytishlarida, afsona, ertak, o'yin qo'shiqlarida-yu dostonlarida ham beg'ubor bolalik haqida so'z ketadi. O'zbek adabiyotida bola qalbini hamda go'zal bolalikni ulug'lab yozilgan yuzlab hatto minglab ham topish mushkul emas. Jumladan G'afur G'ulomning „Shum bola“, Oybekning „Bolalik“, Abdulla Qahhorning „O'tmishdan ertaklar“ qissalari bolalarning ruhiyatiga o'zgacha ta'rif beradi. Ayniqsa Xudoyberdi To'xtaboyevning „Sehirli qalpoqcha“, „Sariq devni minib“, „Sariq devning o'limi“ asarlari bolalik davrining unutilmas va beg'ubor sho'xliklarini madh etadi. Aytish joizki bunday adabiyot namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Bu turdagi adabiyotlar taraqqiyot tamoyillari avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Chingiz Aytmatovning „Oq kema“ asari ham aynan bola ta'sviriga bag'ishlangan. Ayniqsa hali voyaga yetmagan beg'ubor qalbli bolaning hali tushunib ulgurmagan nohaqliklar haqida aytiladi. Bolaning o'zi uchun yaratilgan mo'jaz va yaxshiliklarga boy ertagi kattalarnikidan mutlaqo farq qiladi. Asarda bola o'zining



mo'jaz dunyosida yashaydi. Bolalik baxtli va beg'ubor olam. Bolalar hamma eshitgan ertaklarini hayotga tatbiq qilgilar va shu ertaklar ichida yashaydilar. Uning ikki ertagi bo'lardi biri o'ziniki uni hech kim bilmasdi, ikkinchisini esa bobosi so'zlab bergandi deya boshlanadi Chingiz Aytmatovning „Oq kema“ asari.

Ch. Aytmatovning "Oq kema" asari samimiyligi bilan kitobxonni o'ziga tortadi. Uslub ham o'ziga xos. Bolaning o'y-fikrlari shunchalik hissiyotga boy tarzda tasvirlanadiki, beixtiyor o'zimizni o'sha vaziyatga tushib qolganday his qilamiz. Asarni necha marta o'qiganim sari obrazlar haqida o'ylayveraman. Asarda oila masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. (Bolaning yolg'izligi-yu, o'z otasiga sog'inch bilan intilishi, O'rozqulning farzandsizligi-yu, Mo'min cholning iztiroblari) Mazkur asar butunlay hayotimni o'zgartirib yuborgan asar. Oq kema asaridagi bola va uning atrofidagi obrazlarni insonga o'xshataman. Bola obrazi qalbdir. U yomonliklar va qabihliklarni ko'rsa, kirlanadi, o'lib boradi. To'g'ri, butunlay yo'q bo'lmasligi mumkin, ammo endi uni kimsasiz hovli joydan farqi yo'q, hisob. Oq kema mehr-muhabbat ramzi. Bola shuning uchun ham doim Oq kemaga intiladi[1.1]

Bola qalbi naqadar beg'ubor bo'ladi. Chingiz Aytmatovning bu qissasi Issiqko'l bo'yida yashovchi 7 yoshli yetim bolaning beg'ubor qalbi, o'z olami, sodda dunyoqarashi va qanchalik haqiqatgo'yiligi haqida hikoya qiladi. Bola o'z olamida yashardi.[2.3]

„Oq kema“ qissasida 6 - 7 yoshli bolakayning bola bo'lib topa olmagan baxti, yaqinlaridan ko'rmagan mehri, oppoq orzulari, beg'ubor qalbi va mana shu poklik, beg'uborlikning toptalishi hamda bolakayning fojiasi aks etadi. Asarni o'qir ekanmiz, dastlab bolaning "do'st" lari bilan tanishamiz : toshlar, hayvonlar, durbin, portfel... keyinchalik esa uning yolg'izligi, yaqin insonlari ichida begonaligi ayon bo'ladi. Uning orzulari... ushalmasligini bilsada orzu qilishdan to'xtamaydi. Asarda bola obrazidan tashqari Mo'min chol, o'gay buvi, O'razqul, Seydahmad, Guljamol, Shoxdor ona bug'u kabi obrazlar ham mavjud. Bolani tushunadigan va unga mehribon yagona inson - Mo'min chol. [3.2]

Barcha davrlar Bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi.

Biroq Bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sof badiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, 20 asr boshlarida o'zbek Bolalar adabiyotida ko'proq ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchilik qilsa, 30-yillar Bolalar adabiyotida realistlik adabiyot tamoyillari ustuvor, 5060- yillar Bolalar adabiyotida sarguzasht fantastik



adabiyot elementlari kuchaydi. 80-yillar Bolalar adabiyotida psixologizmning kuchayishi, yosh qahramon talqinida uni yosh bola tarzida emas, hayotga tobora jadal kirib kelayotgan, o'z qarashlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tasvirlashga intilish ruhi mavjud. O'zbek Bolalar adabiyoti taraqqiyotida 90-yillar yangilanish davri bo'ldi. Istiqlool sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarining tiklanishi Bolalar adabiyoti namoyandalari ijodiga ham sezilarli ta'sir qildi, ularning asarlarida haqiqiy o'zbek qiyofasi tasviri yetakchi o'rin egallay boshladi. Bolalar adabiyotining o'ziga xosliklari uning qahramoni tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Masalan, 20-asr boshlari Bolalar adabiyoti namunalari ko'proq ijodkorning faolligi, qahramon tasviri emas, targ'ibiy tashviqiy ruh ustuvorligi bilan ajralib tursa, 30-yillar Bolalar adabiyotida ko'proq xalq og'zaki ijodiga murojaat qilingan, bu davrda yaratilgan asarlarda ham hali faol qahramon obrazi deyarli yo'q edi. 50-60-yillar Bolalar adabiyoti namunalari bevosita yosh qahramonlarning asarlar voqealarida hal qiluvchi o'rin tutish bilan chinakam Bolalar adabiyotiga aylandi. 70-80- yillar Bolalar adabiyoti namunalaridan esa tobora hayotga o'z nuqtai nazari bilan qaraydigan, balandparvoz, ritorik ta'riflardan ko'ra tanqidiy nigohi o'tkirroq yosh qahramon qiyofasi gavdalana boshladi, shu davrda o'zbek Bolalar adabiyotiga ilk bora bolalarning o'ziga xos, endigina uyg'onib kelayotgan pok muhabbati kirib keldi. 90-yillar adabiyotida bu borada yangi qadam tashlandi, o'zbek bolasi o'zbekning farzandi ekanligidan faxrlanish, ulug' ajdodlarga munosib bo'lish ruhidagi, tom ma'nodagi vatanparvarlik g'oyasi ustuvor asarlarni o'qish baxtiga musharraf bo'ldi. Ad.: Suyumov A., Kichkintoylar adabiyoti, T., 1962; Jahongirov F., O'zbek bolalar folklori, T., 1975; Bolalar adabiyoti va zamonaviylik, T., 1981;Safarov O., O'zbek bolalar poetik folklori, T., 1985; O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon, T., 1989; Barakayev R., Jonajonim, she'riyat, T., 1997. Rahmatilla Barakayev, Kavsar Turdiyeva.[4.6]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chingiz Aymatovning „Oq kema“ asari B.1.
2. Sarfayoz.Chingiz Aytmatovning „Oq kema" qissasiga yozilgan taqrizi
3. Gulzina Ikromovna. Chingiz Aymatovning oq kema asariga yozilgan taqriz
4. <https://milliycha.uz/bolalar-adabiyoti/>